Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 23-aprel, № 78 (8701) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TOSHKENTDA YIRIK XALQARO SANOAT KO‘RGAZMASI OCHILDI

Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O‘zbekiston dunyodagi yirik sarmoyadorlarni jalb qiladigan hudud maqomiga ega bo‘lmoqda. Kecha poytaxtimizdagi “O‘zekspomarkaz” ko‘rgazmalar majmuasida ochilgan “Innoprom. Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat ko‘rgazmasi bunga aniq misol bo‘la oladi. Xalqaro miqyosdagi yirik tadbirning Toshkentda o‘tkazilishi ochiq savdo, investitsiya, transport kommunikatsiyalari, hududlararo, madaniy-gumanitar aloqalarning kengayishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yangi sanoat texnologiyalarini ommalashtirish hamda korxonalar o‘rtasida o‘zaro sheriklikni yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sirojiddin VOHIDOV olgan suratlar.

“Markaziy Osiyoda sanoat kooperatsiyasi: mintaqaviy yo‘nalish” mavzuida O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Sanoat va savdo vazirligi bilan hamkorlikda tashkil etilgan ko‘rgazma yalpi majlisida O‘zbekiston Bosh vaziri o‘rinbosari Jamshid Xo‘jayev va Rossiya Federatsiyasi Bosh vaziri o‘rinbosari, sanoat va savdo vaziri Denis Manturov qatnashdi. Ta’kidlanganidek, mamlakatimizda 3000 dan ortiq Rossiya bilan qo‘shma korxonalar ishlab turgan bo‘lsa, Rossiyada O‘zbekiston rezidentlari ishtirokida 600 dan ziyod kompaniyalar faoliyat olib bormoqda.

Ahamiyatli jihati shundaki, Toshkent xalqaro sanoat ko‘rgazmasida 10 mingdan ortiq vakillar, 450 ta xorijiy kompaniya hamda 27 davlatdan delegatsiya ishtirok etmoqda. Kechagi dastur doirasida qator mavzularda munozaralar o‘tkazildi. “V2V” formatidagi uchrashuvlarda ishtirokchilar yangi loyihalar va kelgusi hamkorlik istiqbollari yuzasidan munozaralarda qatnashdi.

Sanoat ko‘rgazmasi 24-aprelga qadar davom etadi.

“Xalq so‘zi”.

Aks sado

MANFAATLI ALOQALAR VA YAXSHI QO‘SHNICHILIK RISHTALARI

Bugungi shiddatkor zamon, tinchlik deya atalmish ulug‘ ne’mat yanada qadrli bo‘lib borayotgan davr davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik, hamkorlik rishtalarini mustahkamlashni taqozo etmoqda. Xususan, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham aynan shu masalaga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas.

Prezidentimizning qo‘shni Tojikistonga davlat tashrifi zamirida ikki mamlakat o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik, uzoq yillarga mo‘ljallangan strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishdek ezgu maqsad mujassam.

Qayd etish joizki, bugungi kunda O‘zbekiston va Tojikiston rahbarlari do‘stona aloqalarni faollashtirib, Markaziy Osiyoda tinchlikni saqlash, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shmoqda. Natijada bugun teng huquqlilik, o‘zaro hurmat va ishonch tamoyillariga asoslangan munosabatlarimiz yangi bosqichga ko‘tarildi. Ayniqsa, bu ikki davlat bir-birlarining global tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlab, MDH, ShHT, IHT va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida izchil hamkorlik qilib kelayotgani e’tiborga molik.

Tarixiy voqeliklar va natijalarga boy o‘tgan tashrif davomida O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning barcha yo‘nalishini qamrab oluvchi 28 ta hujjat imzolandi.

Shu o‘rinda ikki davlat o‘rtasida ta’lim, tibbiyot, farmatsevtika, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik kun sayin yuksalib borayotganini ta’kidlash zarur.

Buni oxirgi yetti yilda o‘zaro savdo hajmi 197 million AQSh dollaridan 757 million dollargacha o‘sganida, eksport-import hajmi 4-5 barobar oshgani, tovar ayirboshlash hajmi 40 barobar o‘sib, qo‘shma korxonalar soni 15 barobar ko‘payganida ham kuzatish mumkin. Ayniqsa, ikki davlat o‘rtasidagi chegaralar ochilib, fuqarolarning bordi-keldisi birmuncha osonlashdi. Toshkent, Samarqand hamda Dushanbe, Panjikent, Xo‘jand shaharlari o‘rtasida avia, avtobus va temir yo‘l qatnovlari yo‘lga qo‘yildi.

Chegaradosh hududlarda o‘zaro savdo-sotiq, logistika obyektlari ishga tushirilib, har ikki tomon uchun samarali faoliyat yo‘lga qo‘yilayotganini ham aytish zarur. Masalan, Farg‘ona viloyatining Beshariq tumanida Tojikiston bilan chegaradosh hududda “Andarxon” yirik mintaqaviy savdo-logistika klasteri qurilmoqda. Yaqin kunlarda bu yerda 200 dan ziyod obyektlar — ishlab chiqarish sexlari, do‘konlar, mehmonxonalar, bank va logistika markazlari faoliyat yurita boshlaydi. Bu tumanda keyingi paytda tibbiy turizm ham sezilarli darajada rivojlanyapti.

2018-yilda ikki davlat o‘rtasida viza rejimining bekor qilinishi va chegaralarning ochilishi turli sohalardagi aloqalarni rivojlantirishga katta turtki berdi, bu insonlarning erkin harakatlanishi, muloqot va savdo qilishi uchun qulay sharoitlar yaratdi.

3

SENAT KENGASHINING SAYYOR MAJLISI O‘TKAZILDI

Oliy Majlis Senati tomonidan respublikamiz tuman va shaharlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining samarali ijro etilishi ustidan parlament nazorati amalga oshirilib, bu borada uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatib kelinmoqda.

Jarayon

Senat Kengashining navbatdagi sayyor majlisi Qarshi shahrida o‘tkazildi va unda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda aholini sifatli ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlash bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar ijrosi muhokama qilindi.

So‘zga chiqqanlar viloyatda ushbu yo‘nalishda bir qator natijalarga erishilganligini alohida ta’kidlashdi.

Xususan, so‘nggi yetti yilda Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosi ta’minlanishi hisobiga yalpi hududiy mahsulot 1,3 barobar, sanoat ishlab chiqarishi 1,5 karra, qurilish ishlari 1,5-marta va xizmatlar 1,9 barobarga oshgan. Bu davrda 5,2 ming kilometrlik ichimlik suvi tarmoqlari tortilib, suv ta’minoti 29,8 foizdan 59,4 foizga yetkazilgan va 7,7 ming kilometrlik uzunlikdagi ta’mirtalab yo‘llar holati yaxshilangan, 480 ga yaqin ko‘p qavatli uylar qurilib foydalanishga topshirilgan.

2

Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

FAOL POZITSIYA VA MAS’ULIYAT HISSI

Qonun loyihalari muhokamalarida qizg‘in tortishuv, bahs-munozaralarning bo‘lishi tabiiy jarayon va bu deputatlarning qay darajada faol pozitsiyaga ega ekanini namoyon etadi. Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining kecha bo‘lib o‘tgan yig‘ilishlarida kun tartibidagi dolzarb masalalar xalq vakillari tomonidan o‘ta sinchkovlik bilan atroflicha ko‘rib chiqildi. Garchi ba’zi masalalarda deputatlar qarashlari turlicha bo‘lgan bo‘lsa-da, barchasi ustuvor maqsad ro‘yobiga — inson huquq va manfaatlarini kafolatlash, mamlakatimiz taraqqiyotini yanada yuksaltirishga qaratilgani bilan ahamiyatli.

Qizg‘in savollar o‘rtaga tashlandi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 18-19-aprel kunlari Tojikiston Respublikasiga davlat tashrifining ahamiyati muhokama markazida bo‘ldi.

O‘zLiDeP fraksiyasi rahbari Aktam Haitov so‘nggi yillarda ikki davlat o‘rtasidagi keng qamrovli va ko‘p qirrali hamkorlik yangi sur’at kasb etib, mazmunan boyib borayotganini ta’kidladi. Prezidentimizning ushbu tashrifi ikki qardosh xalq o‘rtasidagi azaliy do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro ishonch munosabatlariga asoslangan davlatlararo muloqotni har tomonlama mustahkamlash va boyitish yo‘lidagi muhim qadam bo‘lgani qayd etildi.

Yig‘ilishda “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

2

QARDOSHLIK MUNOSABATLARIDA TARIXIY DAVR

Dunyoda kechayotgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga ko‘z tashlasak, ziddiyat va urushlarning aksariyati qo‘shnilarning o‘zaro noahilligi tufayli kelib chiqqaniga guvoh bo‘lamiz. Ayniqsa, Yevropa, Osiyo va Afrika, Yaqin Sharq va Fors ko‘rfazidagi keskinliklar ortida ham xuddi shunday sabablar yotadi.

Yaqin paytlargacha Markaziy Osiyoda ham mamlakatlar va xalqlar orasida goh oshkora, goh yashirin adovat, gina-kuduratlar kuzatilib turdi. Vaqtlar bo‘ldiki, qon-qardosh, quda-anda xalqlar orasiga ko‘zga ko‘rinmas pardalar tutildi, sun’iy devorlar o‘rnatildi. O‘zaro bordi-keldi, go‘yoki ushalmas orzuga aylandi.

So‘nib borayotgan orzu 2016-yil oxiridan e’tiboran O‘zbekiston tashqi siyosatidagi o‘zgarishlar tufayli qayta tiklandi. Qog‘ozdagi o‘zaro do‘stlik haqidagi xayolot hayotga ko‘chdi. Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylangan O‘zbekiston, birinchi navbatda, asosiy e’tiborni qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilash va mustahkamlashga qaratishini e’lon qildi. Oradan ko‘p vaqt o‘tgani yo‘q, davlat rahbarlarining qat’iy siyosiy irodasi tufayli bugun dunyo hamjamiyati mintaqamizda ro‘y berayotgan tarixiy jarayonlarga guvoh bo‘ldi. Chegaralar ochildi. Sim to‘siqlar o‘rnini do‘stlik darvozalari egalladi.

Ahil qo‘shnichilik, madaniy diplomatiya siyosati bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasining “tashrif qog‘ozi”ga aylanib ulgurdi. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida qardoshlik munosabatlari ittifoqchilik darajasiga ko‘tarilmoqda. 2022-yilda Qozog‘iston bilan ittifoqchilik munosabatlari o‘rnatgan O‘zbekistonning mintaqada yana bir ittifoqchisi paydo bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga 18-19-aprel kunlari amalga oshirgan davlat tashrifi chog‘ida mamlakatlarimiz o‘rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi tarixiy shartnoma imzolandi.

3

HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH HOLATI QAY DARAJADA?

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush farovonligini oshirish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash borasidagi ishlar, “mahalla yettiligi” hamda mahalliy Kengashlar faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida amaliy tashrif bilan Qashqadaryo viloyatida bo‘ldi.

Muloqot

Koson tumanida xalq deputatlari Koson hamda Muborak tuman Kengashlari deputatlari ishtirokida o‘tkazilgan uchrashuvda asosiy e’tibor davlatimiz rahbarining “Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonidan kelib chiqadigan vazifalarga qaratildi.

Xususan, mahalliy Kengashlar faoliyati samaradorligini oshirishda deputatlik nazorati instituti imkoniyatidan samarali foydalanish, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosi ustidan ta’sirchan deputatlik nazoratini o‘rnatish yuzasidan o‘zaro fikr almashildi. Ayni chog‘da aholi muammolarini aniqlash va bartaraf etishda “mahalla yettiligi” bilan hamkorlikni kuchaytirish yuzasidan aniq vazifalar belgilab olindi.

Qarshi tumanidagi “Yertepa” MFYda ham hududdan saylangan mahalliy Kengash deputatlari bilan muloqot o‘tkazildi. Unda aholini munosib ish bilan ta’minlash, mahallalardagi ijtimoiy masalalarni hal etishga ko‘mak berish, mahalliy Kengash sessiyasi hamda doimiy komissiyalar muhokamasiga dolzarb masalalarni olib chiqish yuzasidan tavsiyalar berildi.

2

BIZ 37 000 000 GA YETDIK!

2024-yilning 22-apreli O‘zbekiston hayotida yana bir tarixiy voqeaga guvoh bo‘ldi. Jonajon Vatanimiz aholisi roppa-rosa 37 millionga yetdi. Ulardan mehnatga layoqatli aholi bir yil oldingiga nisbatan 205 ming 600 nafar ko‘pdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma’lum qilishicha, aholi soni 4 milliondan oshgan viloyatlar 2 taga yetdi. Endilikda nufusimiz har kuni 1800, har oyda 54 ming 500 nafarga ko‘paymoqda.

Eslatib o‘tamiz, 36 millionlik marra 2022-yilning dekabrida bosib o‘tilgan edi.

Bugungi kunda eng aholi gavjum hududlar Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo viloyatlari hisoblanadi. Yurtimiz shaharlarida 19 million, qishloq hududlarida esa 18 million aholi istiqomat qiladi.

Hamma narsa qiyoslanganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Yer yuzida aholisi 1 millionga ham yetmaydigan davlatlar juda ko‘p. Xalqimiz nufusi jihatdan Markaziy Osiyo mintaqasida peshqadam.

Oxirgi 5 yil mobaynida aholi ko‘payishi har qachongidan jadallashdi. Bu xalqimizning turmush darajasi oshib borayotganidan dalolatdir.

Sh. JABBOROV tayyorladi.
Y. BO‘RIYEV olgan suratlar (“Xalq so‘zi”).

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 23-aprel

SENAT KENGASHINING SAYYOR MAJLISI O‘TKAZILDI

1 O‘tgan yilda investitsiya dasturlari doirasida sanoat, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi sohalarini rivojlantirish bo‘yicha 836 mln. dollarlik 1 340 ta loyiha ishga tushirilgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri 377 mln. dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirilgan. Mahalliylashtirish dasturi bo‘yicha 391,6 mlrd. so‘mlik import o‘rnini bosuvchi 25 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Shularga mos ravishda hududiy bandlik dasturi doirasida doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ish o‘rinlarida yil davomida 474 ming kishining bandligi ta’minlangan.

Muhokama jarayonida hududda amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birga, mavjud ayrim kamchiliklar va o‘z yechimini kutayotgan muammolarga ham e’tibor qaratildi.

Xususan, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, investitsiyalarni jalb qilish, eksport prognozi ko‘rsatkichlari ijrosini ta’minlashda ayrim tumanlarda ishlar yetarli darajada tashkil etilmagan. Masalan, Dehqonobod tumanida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, Kitob, Mirishkor, G‘uzor va Qarshi tumanlarida investitsiya hajmida o‘sish sur’ati ta’minlanmagan. Eksport prognozi ko‘rsatkichlari esa Muborak, Yakkabog‘ va Shahrisabz tumanlarida atigi 50 — 55 foizga bajarilgan xolos.

2023-yilda yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyatini boshlagan 7,5 mingta subyektning 36 foizi faoliyatini to‘xtatgan. Ushbu ko‘rsatkich Kitob, Koson, Ko‘kdala va Chiroqchi tumanlarida yuqori. Buning sabablari tahlil qilinib, tegishli choralar ko‘rilmagan.

Bo‘sh turgan davlat obyektlariga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish ishlari samaradorligi ham past. Auksion savdolariga chiqarilgan 130 ga yaqin bo‘sh turgan binolar uch oydan ortiq vaqt mobaynida sotilmagan.

Joriy yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra soliq to‘lovchilarning budjet oldidagi muddati o‘tgan qarzdorligi o‘tgan yilning mos davridagiga nisbatan 15 foizga oshgan.

Shuningdek, majlisda viloyatda xizmatlar sohasini rivojlantirish, past quvvatda ishlayotgan sanoat korxonalari bilan ishlash, investitsiyalar jalb qilish, eksport hajmini oshirish, aholini uy-joy bilan ta’minlash, muqobil energiyani joriy qilish, suv tejovchi texnologiyalar o‘rnatilishi yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar mas’ul vazirlik va idoralarga ko‘rsatib o‘tildi hamda qator takliflar ilgari surildi.

Muhokama yakunida Oliy Majlis Senati Kengashining tegishli qarori qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH HOLATI QAY DARAJADA?

1 Aholi, ayniqsa, xotin-qizlar bandligini ta’minlash, ish faoliyatini kengaytirish istagidagi ayollarni qo‘llab-quvvatlash, muammolarini o‘rganish va tizimli hal etish masalalariga e’tibor qaratildi. Jumladan, ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish maqsadida moliya muassasalari tomonidan biznes loyihalari tayyorlangani, ularni amaliyotga tatbiq etish uchun kreditlar ajratilishi aytildi. Bundan tashqari, ishlash istagidagi ayollarni kooperatsiya asosida tadbirkorlarga biriktirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Koson tumanidagi “Mesit” MFYda “mahalla yettiligi” bilan o‘tkazilgan suhbat asnosida Senat Raisi xotin-qizlar bandligini ta’minlash bo‘yicha banklararo yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik, birgalikda amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi. Ijtimoiy xizmatlarni mahalla darajasida tashkil etish, ijtimoiy xodimning aholi o‘rtasida manzilli ishlashi lozimligi urg‘ulandi.

Tumandagi ishbilarmonlardan biri “O‘rta Obron” MFY hududidagi ehtiyojmand oilalarni turarjoy bilan ta’minlagan bo‘lib, T. Norboyeva ushbu xonadonlar egalarining turmush sharoiti, bandlik darajasi bilan qiziqdi. Mazkur oilalarning daromad manbasini oshirish yuzasidan mutasaddilarga ko‘rsatmalar berdi.

Senat Raisi Kasbi tumanidagi “Obod mahalla” fuqarolar yig‘inida tuman va shaharlar hokimlari o‘rinbosarlari — oila va xotin-qizlar bo‘limi boshliqlari hamda tijorat banklari vakillari bilan muloqot o‘tkazdi.

Shu jarayonda xotin-qizlar bandligini ta’minlash bo‘yicha Toshkent viloyatining Yangiyo‘l tumanidagi “Qirsadaq” MFY namunasi asosida ishlab chiqilgan yangi tizimni Qashqadaryoda yo‘lga qo‘yish borasida olib borilayotgan ishlar tanqidiy ko‘rib chiqildi.

Bunda ishsiz, ammo ishlash istagidagi xotin-qizlarning imkoniyat va ehtiyojlarini aniqlash borasidagi faoliyat sust olib borilayotganligi qayd etilib, ushbu kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan vazifalar belgilab berildi. Xususan, xonadonbay o‘rganish ishlariga tijorat banklarini va mutasaddi tashkilot vakillarini jalb etish lozimligi aytildi.

O‘rganish natijalaridan kelib chiqqan holda ishsiz va daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish istagidagi xotin-qizlarni mavjud bo‘sh va yangi ochilgan ish o‘rinlariga joylashtirish, jamoat ishlariga yo‘naltirish orqali bandligini ta’minlash yuzasidan zarur ko‘rsatmalar berildi.

Mahallalarda tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, hunarmandchilik, kasanachilik va tomorqachilik faoliyati bilan shug‘ullanishni maqsad qilgan xotin-qizlarga subsidiyalar ajratish masalasi ham e’tibor markazida bo‘ldi.

Bundan tashqari, o‘rganishlar davomida aniqlangan tibbiy, psixologik, ijtimoiy yordamga muhtoj xotin-qizlarga manzilli yordam ko‘rsatish, har bir ayol muammosi to‘liq hal etilgunga qadar uning nazoratini yo‘lga qo‘yish va zarur bo‘lganda qo‘shimcha yordam ko‘rsatish kerakligi ta’kidlandi.

Tashrif doirasida Senat Raisi viloyatdagi qator korxonalar faoliyati bilan ham yaqindan tanishdi.

Ma’lumki, bugun Qashqadaryoda sanoat tez rivojlanib, ishlab chiqarish quvvatlari kengayib bormoqda. Kasbi tumanidagi loyiha qiymati 2,2 mln. dollar bo‘lgan “Sulton Tex Group” xususiy korxonasida ayni paytda 500 kishi mehnat qilmoqda. E’tiborlisi, korxonada o‘quv markazi ham ochilgan bo‘lib, uni bitirgan xotin-qizlar shu yerning o‘zida ish bilan ta’minlanyapti.

Shuningdek, T. Norboyeva Koson tumanining “Mesit” MFYdagi “Bunyodkor” paxta-to‘qimachilik klasteriga tegishli tikuvchilik korxonasida bo‘ldi. Bu yerda paxta yetishtirish va uni chuqur qayta ishlashning to‘la sanoat “zanjiri” yaratilgan. Turkiya va Italiyadan keltirilgan uskunalar bilan jihozlangan korxonada tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilyapti. Yuqori sifatli kiyim-kechaklar eksportga yo‘naltirilayotgani, ayniqsa, e’tiborga molik.

Qarshi shahridagi “Buyuk Turon” kichik sanoati zonasi Senat Raisining navbatdagi tashrif manzili bo‘ldi. Bu yerda “S-Smart” brendi ostida so‘nggi avlod televizorlarini ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishildi. Vohada yagona sanalgan korxona mahsulotlariga mahalliy bozorda talab yuqori bo‘lishi bilan birga, eksportga ham chiqarilayotir.

Senat Raisi aholi, ayniqsa, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, ularning reproduktiv salomatligini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan bevosita tanishdi.

Xususan, Qarshi shahridagi Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazining viloyat filialida bo‘lib, shifokor va bemorlar bilan suhbatlashdi.

Ochiq muloqot asnosida onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, xotin-qizlar va ularning reproduktiv salomatligini tiklash, erta tug‘uruqning oldini olish, dunyoga kelgan va tug‘ilajak go‘daklar hamda ularning onalariga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish borasida markaz va uning tuman filiallarida olib borilayotgan ishlar tanqidiy muhokama qilindi.

Viloyatda 2023-yilda 95,2 ming nafar homilador ayol ro‘yxatga olinib, 102,3 ming tug‘uruq qayd etilgan bo‘lsa, 7 mingga yaqin homiladorlar birlamchi tibbiy muassasada hisobda turmasdan tug‘uruq muassasalariga borishgan.

Suhbat davomida onalar va bolalar salomatligi uchun mas’ul bo‘lgan soha xodimlari oldida turgan dolzarb vazifalarga ham to‘xtalib o‘tildi. Masalan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida “tibbiyot brigadalari” o‘zlariga biriktirilgan hududlarda homilador ayollarni aniqlashi, ularni hisobga olish va davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tishini tashkil etishi, holatini doimiy monitoring qilib borishi, tug‘uruqdan keyin ona va bolaning davriy patronajini yuritishi lozimligi urg‘ulandi.

Viloyatda bugun davlat sog‘liqni saqlash muassasalari qatori xususiy tibbiyot ham rivojlanib bormoqda. Qarshi shahridagi “Javohir medikal sentr” MCHJ tibbiy tashxis qo‘yish va davolash markazi yiliga 120 ming aholiga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan.

Senat Raisi zamonaviy tibbiyot uskunalariga ega muassasa faoliyati bilan tanisharkan, bemorlarga yaratilgan sharoitlarga ham e’tibor qaratdi.

Ayni paytda 200 nafar xodim ishlayotgan muassasada 2024-yil yakunigacha diagnostika markazini kengaytirish loyihasi hisobiga yana 30 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Oliy Majlis Senati Raisining Qashqadaryo viloyatiga tashrifi qizg‘in muloqotlar va natijalarga boy tarzda kechdi.

“Xalq so‘zi”.

FAOL POZITSIYA VA MAS’ULIYAT HISSI

1 Munozaralar davomida fraksiya a’zosi Nodir Abduvaliyev qonun loyihasining 138-moddasida nazarda tutilayotgan yangiliklar bo‘yicha o‘z takliflarini berdi. Ya’ni piyodalar yo‘l harakat qismining belgilanmagan joylaridan kesib o‘tishi, yo‘lning qatnov qismida, shu jumladan, piyodalar o‘tish joyida harakatlanayotganida yo‘lovchilarning telefondan foydalanishi va boshqa harakatlari uchun jarima miqdorini oshirmasdan, amaldagi tartibni saqlab qolish lozimligini bildirdi.

Fraksiya a’zosi Shahnoza Xolmahamatova ham ushbu masalaga to‘xtalib, piyodalarning yo‘llardan o‘tishi uchun, eng avvalo, ularga zarur sharoitlar yaratish, ta’lim muassasalari oldida yo‘l belgilarini o‘rnatish va yo‘l chiziqlarini chizish zarurligini ta’kidladi.

Qonun tashabbuskorlari shu va boshqa ko‘tarilgan masalalar yuzasidan atroflicha tushuntirishlar berib o‘tdi. Ularning aytishicha, mazkur qonun loyihasi yo‘l harakati qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bilan birga, yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga xizmat qiladi.

Xalqaro tadqiqot markazi ustavi nima beradi?

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida dolzarb qonun loyihalari qatorida “Madaniy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bo‘yicha xalqaro tadqiqot markazi (ICCROM) Ustavini (Rim, 2013-yil 29-noyabr) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun loyihasi muhokamasi qizg‘in kechdi.

Qonun tashabbuskorlarining aytishicha, mamlakatimizda markaz Ustavini ratifikatsiya qilishga katta ehtiyoj bor. Buning natijasida ayni paytda UNESCO bilan hamkorlikda ushbu yo‘nalishda qilinayotgan ishlar endilikda xalqaro markaz doirasida amalga oshiriladi. Bu nafaqat mamlakatimiz imijiga, balki jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan mashhur yodgorliklarimizning xalqaro darajadagi targ‘ibot-tashviqotiga ham katta yordam beradi.

Muhokama davomida fraksiya a’zolari madaniy meros obyektlarini asrash “Milliy tiklanish” DPning eng ustuvor vazifalaridan biri ekanligini aytib, qonun loyihasi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Deputatlarning qayd etishicha, betakror obidalarimizni ko‘z qorachig‘idek asrashga bo‘lgan munosabat hamon talab darajasida shakllangani yo‘q. Albatta, xalqaro darajadagi bunday hujjatlar jamiyatimizda bu boradagi ishlar madaniyat darajasiga aylanishiga xizmat qiladi. Qolaversa, bunday hujjatlar nafaqat imkoniyat beradi, balki majburiyatlar ham yuklaydi.

Shuningdek, O‘zbekistonning “ICCROM”ga a’zo bo‘lishi UNESCOning texnik yordami va mablag‘larini kengroq jalb etish, har ikki yilda bo‘lib o‘tadigan “ICCROM” Bosh assambleyasida yurtimizda madaniy merosni saqlash holatini ko‘rib chiqish hamda sohada o‘tkaziladigan xalqaro tadbirlar va munosabatlarda O‘zbekiston vakillariga to‘laqonli a’zo sifatida ishtirok etish imkonini beradi.

Aniq huquqiy mexanizmlar belgilanadi

Mamlakatimizda fuqarolarning vijdon erkinligi va diniy e’tiqodiga oid konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash hamda ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilib, fuqarolarga Umra ziyorati uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Lekin Umra tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirishning aniq huquqiy mexanizmlari yaratilmagani ziyoratchilar huquqlarini to‘liq himoya qilish imkonini bermayapti.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi bilan “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonunlar Umra tadbirini tashkil etish va o‘tkazish, xizmat ko‘rsatishga oid qo‘shimcha normalar bilan to‘ldirilyapti.

Munozaralar davomida deputatlar qonun loyihasi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirar ekan, loyihani ikkinchi o‘qishga tayyorlash jarayonida fraksiya a’zolari tomonidan ilgari surilgan bir qator takliflar e’tiborga olingani va hujjat matnida o‘z aksini topganligini alohida qayd etdilar.

Deputatlarning fikricha, mazkur qonun loyihasi Umraga ketayotgan ziyoratchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari yanada mustahkamlanadi

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan qonun loyihasi partiya elektorati manfaatlari nuqtayi nazaridan muhokama qilindi.

Qonun loyihasi bilan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunga nogironligi bo‘lgan shaxslarning odil sudlovdan foydalanish, saylash va saylanish, referendumda ishtirok etish, shuningdek, foydalanish imkoniyati bo‘lgan multimedia vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish yordamida ta’lim olish huquqlarini ta’minlash uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Fraksiya a’zolari qonunchilikka kiritilayotgan o‘zgartirishlar nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta’minlashga, sohadagi inson huquqlari va erkinliklari borasidagi umume’tirof etilgan xalqaro normalar hamda standartlarni milliy qonunchilikka tatbiq etishga xizmat qilishini alohida e’tirof etishdi.

Yig‘ilishda, shuningdek, so‘nggi vaqtlarda qo‘shni respublikalar hududidan o‘tgan xalqaro magistral yo‘llarda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirokida yo‘l-transport hodisalarining sodir bo‘layotgani bilan bog‘liq holatlar internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez ko‘zga tashlanayotgani, bu esa, o‘z navbatida, jamoatchilik va fuqarolarning e’tirozlariga sabab bo‘layotgani yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Shundan kelib chiqib O‘zXDP fraksiyasi tashabbusi bilan parlament eshituvini o‘tkazish masalasi ham atroflicha muhokama qilindi va deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Jazo choralari kuchaytirilmoqda

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda yurtimizda ijtimoiy soha obyektlari va aholining ko‘mir mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qoplash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo ayrim hollarda ko‘mir mahsulotini iste’molchilarga yetkazish va tarqatishda yoki ularni tashishga mo‘ljallangan transport vositalaridan foydalanishda yashirin ravishda oz miqdorda talon-toroj qilish holatlari uchrab turganligi aholining haqli e’tiroziga sabab bo‘layotir.

Bu kabi holatlarni bartaraf etish va ularga ta’sirchan choralarni ko‘rish maqsadida ishlab chiqilgan qonun loyihasi bilan ko‘mir mahsulotlarini o‘g‘irlash, o‘zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste’mol qilish yoki firibgarlik yo‘li bilan oz miqdorda talon-toroj qilish kabi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Yig‘ilishda fraksiya a’zolari qonun tashabbuskorlaridan o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi hamda qonun loyihasini maromiga yetkazishga qaratilgan taklif-tavsiyalarini bildirdi. Xususan, ko‘mir mahsulotlarini yetkazish va tarqatish punktlarida aholiga yo‘naltirilayotgan ko‘mir mahsulotlarining sifatini oshirish zarurligiga alohida e’tibor qaratildi. Bundan tashqari, ko‘mir mahsulotlari og‘irligini sun’iy ravishda oshirish maqsadida boshqa turdagi mahsulotlarni aralashtirayotganlarga nisbatan ham javobgarlik belgilanishiga oid takliflar ilgari surildi.

Fraksiyalar yig‘ilishlarida qizg‘in muhokama qilingan qonun loyihalari qo‘llab-quvvatlandi hamda fraksiyalar faoliyatiga oid ko‘rilgan boshqa masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

XORIJIY TILLARNI O‘RGANISHDA YANGI IMKONIYATLAR

Bugungi globallashuv davri har birimizdan zamon bilan hamnafas odimlashni talab etadi. Demak, bugun qaysi sohada ishlamaylik, albatta, ona tilimiz bilan birga, bir nechta xorijiy tillarni ham bilishimiz zarur. Boisi til bilgan kishi dunyo kezadi, do‘st orttiradi, hamkorlar topadi. Jahon xalqlari madaniyatidan, tarixidan xabardor bo‘ladi.

Fikr

Shu sababli nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda chet tillarni o‘rganishga qiziqish kundan-kunga ortmoqda. Inson qachonki xorijiy tillarni mukammal bilsa, bir nechta tillarda muloqot qila olsa, kasb-hunar o‘rgansa, hayoti va turmushi ham mazmunli o‘tadi. O‘zbekistonda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, turli yo‘nalishlarda yetuk mutaxassislarni tayyorlashda xorijiy tillarni chuqurlashtirib o‘rgatishga muhim vazifa sifatida qaralayotgani boisi ham shunda.

Buning zamirida yurt kelajagi va ravnaqi uchun xizmat qiluvchi, dunyo bozorida raqobatbardosh, talabgir, bilimdon kadrlar tayyorlash, o‘g‘il-qizlarning hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ilmu hunarli qilish maqsadi mujassam.

Xorijiy tillarni mukammal o‘zlashtirgan har qanday inson nafaqat o‘z faoliyatiga yangiliklar olib kiradi, vazifalarni sifatli bajaradi, ilg‘or g‘oyalar bilan chiqadi, balki oddiy aytganda, xizmat pog‘onalaridan ko‘tarilish uchun mustahkam intellektual zamin tayyorlaydi. Eng muhimi, xorijiy tillarni yaxshi bilgan inson qayerda bo‘lmasin ishini topadi, o‘zgalarning yordamiga muhtoj bo‘lmaydi. Shuning o‘ziyoq globallashuv davrida til bilish naqadar muhim ekanidan dalolat beradi.

Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda, internet saytlarida xorijda mehnat faoliyatini olib borayotgan yoshlarimizning til bilmasligi, qo‘lida yaxshi hunari yo‘qligi sababli turli qiyinchiliklarga, muammolarga duch kelayotgani haqida ko‘p eshityapmiz. Bu har birimizni o‘ylantiradi, mushohadaga chorlaydi. Demak, ushbu masalada hali muammolar bor.

Xo‘sh, bu muammoning oldini olish mumkinmi? Albatta, mumkin. Buning uchun yurtdoshlarimiz Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi xizmatlaridan samarali foydalanishi kerak, xolos. Lekin ko‘pchilik fuqarolarimiz o‘z xavfsizligini o‘ylamay, Rossiya yoki Qozog‘istonga borishni afzal ko‘radi.

Vaholanki, bugun mamlakatimizda xorijga ishlash uchun ketish istagidagi mehnat migrantlarini til va kasb-hunarga o‘qitish, xavfsizligi va kafolatlangan ish bilan bandligini ta’minlash bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yilgan. Davlatimiz yaratib berayotgan imkoniyatlar, sharoitlarga qaramay, ba’zi yoshlarimiz chet tilni bilmasa-da, xorijga chiqib ketyapti. Til bilmasligi bois ish izlash va tanlashda xatolarga yo‘l qo‘ymoqda, huquqlarini talab qila olmayapti.

Mazkur muammolarni hisobga olib, yurtimizda mehnat migratsiyasini, xalqaro mehnat migratsiyasi jarayonlarini o‘z ichiga oluvchi migratsiya siyosatini shakllantirish yo‘lida izchil ishlar olib borilayotir. Mehnat migratsiyasi masalalarini tartibga solish, mavjud muammolarni bartaraf etish, chet elga ketishdan oldin yurtdoshlarimizning kasbiy mahoratini oshirish imkoniyatini yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Masalan, ayni chog‘da 28 ta davlatning 300 ga yaqin ish beruvchi va rekruting agentliklari bilan O‘zbekistondan ishchi kuchini jalb qilish bo‘yicha hamkorlik shartnomasi imzolangan. Shuningdek, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan xorijiy tillarni va kasb-hunarni o‘rgatish uchun 32 ta monomarkaz, 53 ta kasb-hunar o‘qitish va 13 ta qurilish sohasi malakali mutaxassislarini tayyorlash markazi hamda xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda 48 ta kurs faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimiz raisligida shu yil 2-aprel kuni o‘tkazilgan yig‘ilishda ushbu yo‘nalishdagi ishlarni tashkil etishda yangicha tizim yaratish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Unga ko‘ra 27 ta professional ta’lim muassasasida yangi o‘quv kurslari yo‘lga qo‘yiladi. Xorijda ishlash istagi bo‘lgan fuqarolar 1 yilgacha muddatda to‘lov-shartnoma asosida tayyorlanadi va ularni chet tilga o‘qitishda xususiy o‘quv markazlari bilan hamkorlik qilinadi.

Kasbiy malakasi yo‘q, tilni bilmaydigan fuqarolarni esa kasbga o‘qitish va profta’lim muassasalarida maqsadli tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Buning uchun Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi huzurida fuqarolarga xorijiy tillarni o‘rgatish va ishlashga maqsadli tayyorlash markazi ochiladi.

Shu bilan birga, Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Vengriya, Yaponiyadagi elchixona va konsulliklarda mehnat migratsiyasi bo‘yicha attashe, Saudiya Arabistonida agentlik vakili lavozimi joriy qilinadi. Xorijdagi fuqarolarimiz muammosini tezkorlik bilan hal qilish uchun elchixonalar va tegishli vazirliklarda 24 soat ishlaydigan Call-markazlar tashkil etiladi. Bu tizim orqali esa yurtdoshlarimiz o‘zlarini o‘ylantirayotgan barcha masalaga tezkorlik bilan javob olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Sirasini aytganda, mamlakatimizda fuqarolarni chet elga tartibli va xavfsiz jo‘natish bo‘yicha muayyan ishlar qilinmoqda. Bu borada “xorijga ish — mahalladan” tamoyili yo‘lga qo‘yilayotgani e’tiborga molik. Unga ko‘ra hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi xorijda ishlash istagida bo‘lgan fuqaroni aniqlab, “Onlayn mahalla” platformasiga kiritadi. Nomzodlar xorijdagi ish beruvchilar tanlovlariga jalb qilinadi.

Ushbu sa’y-harakatlardan ko‘zlangan maqsad bitta — toki chet ellarda mehnat qilayotgan yoshlarimiz hech bir to‘siq yoki muammoga duch kelmasin, Vataniga, oilasi bag‘riga sog‘-omon qaytsin.

Sherzod QULMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Hasan PAYDOYEV olgan suratlar.

ADABIYOTIMIZ, MADANIYATIMIZ VA SAN’ATIMIZ MUSHTARAK

O‘zbek va tojik xalqlarining o‘xshash jihatlari ko‘p. Jumladan, bu ikki xalqni birlashtiruvchi muhim omillardan biri adabiyot, madaniyat va san’at hisoblanadi.

Prezidentimizning Tojikiston Respublikasiga amalga oshirgan bu galgi davlat tashrifi davomida shu masalaga ham alohida e’tibor berildi. Muzokaralar chog‘ida ikki xalq o‘rtasidagi madaniy-gumanitar almashinuvlarni yanada faollashtirish muhimligi qayd etilib, kinotomosha, konsert, spektakl, ko‘rgazma va yoshlar forumlarini muntazam o‘tkazish kerakligi urg‘ulandi. Ta’lim sohasida hamkorlikni kengaytirish, hamyonbop turizm dasturlarini ishlab chiqish ham bugungi kunda nihoyatda dolzarb vazifa sanaladi.

Davlat rahbarlarining oliy darajadagi muzokaralarida O‘zbekiston va Tojikiston hamkorligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari keng muhokama etildi. Muhim voqelik sifatida ittifoqchilik munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan tarixiy hujjatlar imzolanganini alohida ta’kidlash zarur.

Darhaqiqat, o‘zbek va tojik xalqlari tarixiy ildizi tutash, taqdirini bir-biri bilan bog‘lagan, turmush tarzi o‘xshash el. Shu bois ham, xalqlarimiz quda-anda bo‘lishgan, yaxshi-yomon kunini birgalikda va hamjihatlikda o‘tkazishgan.

O‘zbek va tojik xalqlarining mushtarak madaniyati o‘zining ko‘p yillik ildiziga ega. “Ikki tilda so‘zlaydigan bitta xalq” sifatida san’atimizni tushundik, uni birgalikda taraqqiy ettirdik va butun dunyoga ma’lum va mashhur qilishda bir yoqadan bosh chiqarib, birlasha oldik.

Xususan, qadimiy bayramimiz Navro‘z, shashmaqom musiqasi va naqqoshlik san’ati kabi noyob meroslarimiz Tojikiston bilan birgalikda UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgani ham ikki xalqning madaniyat hamda san’at sohasidagi yaqindan hamkorligining yorqin namunasidir.

O‘zbek va tojik musiqa san’ati ikki yurtda ham birdek qadrlanadi. Xonadonida biror yaxshi kun yoki bayram bo‘ldimi, albatta, bir-birining san’atidan foydalanadi va bahra oladi.

Mamlakatimiz yetakchisining davlat tashrifi doirasida ana shu bebaho san’atimizni yanada rivojlantirish va yosh avlodga yetkazishda sidqidildan mehnat qilib kelayotgan san’atkorlar yuksak unvonlar bilan taqdirlandi. Ya’ni mushtarak tarixiy meros, ma’naviy qadriyat va an’analarimizni asrab-avaylash hamda targ‘ib qilish bo‘yicha samarali faoliyati, shuningdek, birodar xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga qo‘shgan munosib hissasi uchun ikki mamlakat madaniyat va san’at arboblarining bir guruhiga faxriy unvonlar berildi.

Xususan, O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti professori Munojatxon Yo‘lchiyeva, madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, “Lazgi” ashula va raqs ansambli badiiy rahbari Og‘abek Sobirov hamda xonanda Yulduz Usmonova “Tojikiston xalq hofizi” faxriy unvoniga, O‘zbek Milliy akademik drama teatri direktori Yodgor Sa’diyev “Tojikiston xalq artisti” faxriy unvoniga munosib ko‘rildi.

Shuningdek, Tojikistonning bir guruh madaniyat va san’at arboblari “O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti” faxriy unvoniga sazovor bo‘ldi.

Ishonamizki, bu tashrif va uning doirasida qabul qilingan hujjatlar o‘zbek va tojik xalqlarini yanada bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Zero, davlatimiz rahbari alohida ta’kidlaganidek, “Tojikiston O‘zbekiston uchun eng yaqin, ishonchli, asrlar bilan sinalgan strategik sherikdir. Birodar o‘zbek va tojik xalqlari ko‘p asrlik do‘stlik rishtalari bilan chambarchas bog‘langan. Bizni umumiy tarix, madaniy va ma’naviy qadriyatlar, an’ana va urf-odatlar birlashtirib turadi”.

Dilorom TOSHMUHAMEDOVA,
Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.

QARDOSHLIK MUNOSABATLARIDA TARIXIY DAVR

1

Ushbu muhim hujjat, hech mubolag‘asiz, ikki tomonlama munosabatlarda yangi tarixiy davrni boshlab bermoqda. Markaziy Osiyo birdamligi bu bitim tufayli bugun yangi bir bosqichga kirdi. Endi uni yanada rivojlantirmoq, olg‘a bosmoq kerak.

Ittifoqchilik davlatlararo munosabatlarning eng yuksak va ishonchli darajasi bo‘lib, manfaatlar uyg‘unligi, ikki mamlakat xalqlari taqdiri va kelajagi umumiyligini ifodalaydi. Yanada aniqroq aytganda, bu ittifoqchilik Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynashi aniq. Xalqaro maydonda e’tirof etilayotganidek, O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi kelishuvning imzolanishi O‘zbekiston davlat rahbarining tashrifini sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqdi, ikki tomonlama muloqotlar esa yanada faollashadi. Ya’ni bu qadar muhim hujjat iqtisodiyot, sanoat, savdo, energetika, transport, ilmiy, madaniy, ta’lim hamda xavfsizlik sohalaridagi qo‘shma hamkorlikning asoslari va aniq yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Kelishuv nafaqat ikki tomonlama munosabatlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi, balki bir-birlarining milliy manfaatlarini yanada ko‘proq va yaxshiroq tushunishlariga, hurmat qilishga, ularni mintaqaviy va xalqaro maydonda himoya etishga imkon berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Darhaqiqat, ittifoqchilik munosabatlari muayyan tamoyillar va umumiy qadriyatlar asosida quriladi. Shartnomada mustaqillik, suverenitet, hududiy yaxlitlik va davlat chegaralarining daxlsizligini hurmat qilish, ishonch, tenglik, milliy manfaatlarning o‘zaro hisobga olinishi muhim o‘rin tutadi. Transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalalari mamlakatlarimiz uchun juda muhim. Ushbu sohalarning barchasini qamrab olish uchun ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida bitta katta kelishuv kerak edi. Shartnoma xalqaro siyosatda, mudofaa va xavfsizlik sohasida o‘zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Bu yerda xalqaro maydonda o‘zaro hamkorlik va bir-birini qo‘llab-quvvatlash, qurolsizlanish, ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatmaslik, terrorizm, ekstremizm va separatizmga, xavfsizlikka qaratilgan yangi tahdidlarni bartaraf etishda amaliy aloqalarni kuchaytirish haqida ham so‘z boryapti. Qolaversa, har ikki davlat mintaqaviy mojarolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga har tomonlama hissa qo‘shishga tayyor ekanini bildirmoqda.

Aloqalarning yuqori darajasiga erishish oson kechgani yo‘q. Har ikki tomondan juda katta sa’y-harakatlar sarflandi. Zero, sobiq ittifoq tarqab, mustaqillikka erishgan O‘zbekiston va Tojikiston 1991-yildan beri munosabatlarning murakkab yo‘lini bosib o‘tdi. 2016-yilgacha respublikalar munosabatlariga darz ketgan vaziyatlar ham bo‘ldi. Xususan, Tojikistonning muhim iqtisodiy loyihasi — Rog‘un GES qurilishi ustida kelishmovchiliklar yuzaga chiqdi. Respublikalar o‘rtasida aviareyslar to‘xtatildi, avtobus qatnovlari bekor qilindi, temir yo‘lning bir qismi buzib tashlandi, viza rejimi joriy etildi. Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan bu munosabatlar yaxshilandi. O‘tgan yillarda ikki mamlakat Prezidentlari bir necha o‘zaro tashriflarni amalga oshirdi, strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnomani imzoladi, viza rejimi bekor qilindi, o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini 1 milliard dollarga yetkazishga kelishib olindi.

2018-yilda O‘zbekiston rahbari hatto mamlakatimiz Rog‘un GESi qurilishida ishtirok etishga tayyorligini izhor qildi. Prezident Emomali Rahmon esa Tojikiston o‘z qo‘shnilarini suvsiz qoldirmaslikka so‘z berdi. Ikki davlat rahbarlari Zarafshon daryosi bo‘yida ikkita GESni birgalikda qurishga oid kelishuvga imzo chekdilar. Tomonlar, birinchi navbatda, qiymati 282 million dollar, quvvati 140 megavatt, yiliga 700 — 800 million kilovatt-soat elektr quvvati ishlab chiqaradigan Yovon GESini qurishga ahd qilishdi.

Tojikiston bilan munosabatlardagi “muzlik”ning erishi oson kechmadi. Chunki o‘ta chuqurlashgan adovat tufayli do‘stlik ko‘priklari “yonib” ketgandi. Vaholanki, xalqlarimiz Markaziy Osiyo xalqlari orasida bir-biriga eng yaqini edi. Qiz olib, qiz bergan, qarindosh bo‘lgan. Urf-odatlari ham ikki tomchi suv kabi bir-biriga o‘xshash. Ikki qo‘shni davlat o‘rtasidagi munosabatlarning iliqlashishi, birinchi navbatda, oddiy odamlar hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Buning tasdig‘i sifatida nazorat punktlarining ochilishi, davlatlarimiz o‘rtasidagi temir yo‘l va aviaqatnovning tiklanishi xalqlarimiz tomonidan quvonch bilan kutib olindi. Chegarani kesib o‘tayotganlar o‘zgarishlarni darrov sezishdi. Ikkala tarafdagi chegarachilar ham muloyimlik bilan o‘z ishlarini bajarmoqda, avval bo‘lgani kabi arzimagan narsa bilan muammo chiqarishga urinmayapti. Boz ustiga O‘zbekistonning transport yo‘laklari mintaqaviy hamkorlik uchun o‘ta muhim. Bu yo‘laklar Markaziy Osiyoning barcha davlati, jumladan, Afg‘oniston bilan ham o‘zaro tijoriy aloqalarni kengaytirish uchun qulay sharoitlarni yaratishi mumkin. Endi ittifoqchilik munosabatlari tufayli biz Janubiy Osiyo, Yevropa kabi xalqaro bozorlarga o‘z mahsulotlarimiz bilan birga chiqishimiz mumkin.

Davlatimiz rahbarining tashrifi davomida Dushanbe shahrida imzolangan hujjatlar iqtisodiy hamkorligimiz uchun yangi istiqbollar ochadi, albatta.

Barcha sohada bo‘lgani kabi O‘zbekiston — Tojikiston oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida ham hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda. Bunga bu yil ikkinchi bor O‘zbekiston — Tojikiston oliy ta’lim muassasalari rektorlarining forumi o‘tkazilgani ham bir misol. Aytish joizki, ushbu forum O‘zbekiston va Tojikiston oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida ilmiy, o‘quv-uslubiy, madaniy-ma’rifiy yo‘nalishlardagi hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi. Anjuman doirasida bir qator ikki tomonlama manfaatli kelishuvlarga erishildi. Xususan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti hamda Tojikistonning nufuzli oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik memorandumlari imzolandi. Xo‘jand davlat universitetida Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va madaniyati markazini hamda universitetimizda tojik tili va madaniyati markazini ochishga kelishib olindi.

Xalqaro ekspertlar Toshkent va Dushanbe o‘rtasidagi jadal yaqinlashuvni, ittifoqchilik munosabatlarini ularning qardoshlik, tarixiy, madaniy va ma’naviy aloqalarida, shuningdek, xalqaro maydondagi xavfsizlik, siyosiy va iqtisodiy holatning tezlik bilan o‘zgarib borayotganida, deb bilmoqda. Vaholanki, ayrim yirik siyosiy markazlar mintaqamizdagi ayrim ziddiyatlar oloviga moy qo‘yishga va uni yanada alangalatishga uringan edi. Bir novdaning ikki bargi bo‘lgan bu xalqlar butun tarix davomida ahil yashab kelishgan va dushmanlik ularning qalbiga begona bo‘lgan. Demak, O‘zbekiston va Tojikiston ittifoqi Markaziy Osiyoda turli davlatlar o‘z ta’sir doirasini kengaytirish uchun raqobat olib borayotgan bir paytda mintaqamizda xavfsizlikni mustahkamlashda alohida o‘rin tutadi.

Xalqaro vaziyatning mislsiz va murakkab tus olayotgani, Yaqin Sharq, Sharqiy Yevropadagi inqirozlar, atrofimizda terrorizm sharpasining oshib borayotgan tahdidi ham ittifoqchilik munosabatlari o‘rnatishga sabab bo‘lgan omillardandir. Qisqacha aytganda, tinchlik va xavfsizlikni, qulay iqtisodiy va sarmoyaviy muhitni saqlab qolish yo‘lida barcha Markaziy Osiyo davlatlarining ittifoqchilik munosabatlari xalqlarimiz xohish-istaklariga mos keladi.

Prezidentimizning Tojikistonga tarixiy tashrifi O‘zbekiston va Tojikistonning ko‘p qirrali sheriklikni izchillik bilan mustahkamlash, iqtisodiy taraqqiyot yangi dovonlarini birgalikda zabt etish borasida intilishning yana bir dalili bo‘ldi. Uning samarali natijalari o‘zbek — tojik iqtisodiy hamkorligining kuchli drayveriga aylanadi, mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo o‘sishi hamda sanoat-sarmoyaviy aloqalarning manfaatli tarzda mustahkamlanishiga turtki beradi va o‘z navbatida, Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuhrat SIROJIDDINOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik.

MANFAATLI ALOQALAR VA YAXSHI QO‘SHNICHILIK RISHTALARI

1

Ma’lumki, O‘zbekistonda tojiklar o‘zbeklardan keyin, Tojikistonda esa o‘zbeklar eng katta etnik guruh hisoblanadi. Bu esa madaniy munosabatlar va xalq diplomatiyasini faollashtirishga yordam beradi. Bugun yurtimizda 19 ta tojik milliy madaniy markazi faoliyat yuritmoqda, tojik tilida 8 ta davriy bosma nashr chop etilyapti, teleko‘rsatuv, radiodasturlar efirga uzatilmoqda. Ta’lim tojik tilida olib boriladigan maktablar, oliy o‘quv yurtlarida fakultet va guruhlar soni ko‘paymoqda. Xuddi shuningdek, Tojikistonda ham ta’lim o‘zbek tilida yuritiladigan maktablar soni ko‘p, o‘zbek tilida gazeta va jurnallar nashr qilinmoqda, teleko‘rsatuvlar efirga uzatilmoqda.

Bularning barchasi ikki qardosh mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash, mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash, rivojlanish va taraqqiyotni ta’minlashga zamin yaratmoqda. Zero, davlat rahbarlarining uchrashuvi davomida madaniy-gumanitar almashinuvlarni yanada faollashtirish muhimligi qayd etildi, kinotomoshalar, konsertlar, spektakllar, ko‘rgazmalar va yoshlar forumlari muntazam o‘tkazilishi ta’kidlandi. Ta’lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, hamyonbop turizm dasturlarini ishlab chiqish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Shu bilan birga, keng ko‘lamli hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun hali ishga solinmagan ulkan salohiyat va katta imkoniyatlar mavjudligiga urg‘u berildi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma imzolanishi tarixiy voqelik bo‘ldi. Negaki, mazkur hujjat xalqlarimiz o‘rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Manzura SALIMOVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

“O‘ZSANOATQURILISHBANK” O‘ZBEKISTONNING BAZALT MAHSULOTLARINI DUNYOGA TANITISHDA FAOL ISHTIROK ETMOQDA

Forish tumanidagi “Basalt Uzbekistan” klasteri mamlakatimiz og‘ir sanoati qudratini yuksaltirish, murakkab ish va iqlim sharoitlarida tabiiy boyliklarni samarali o‘zlashtirish hamda tarmoqni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan Jizzax viloyatiga uyushtirilgan press-turda ommaviy axborot vositalari vakillari klasterning bugungi imkoniyatlari bilan yaqindan tanishtirildi.

SANOAT QURILISH BANK

Xabaringiz bor, Prezidentimizning shu yil 8-9-aprel kunlari Jizzax viloyatiga amalga oshirgan tashrifida ilk manzil — Forish tumanidagi “Basalt Uzbekistan” klasteri bo‘ldi. Davlatimiz rahbari korxona faoliyatini besh yil avvalgi holati bilan taqqoslab, yutuqlarini e’tirof etdi. Bazalt mahsulotlarining afzalliklarini tadbirkorlarga tushuntirish, ularning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish, shuningdek, tashqi bozorga chiqishni yanada faollashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Ushbu yirik klasterga tamal toshini qo‘ygan ilk zavodda dastlab tog‘ bag‘ridagi toshlardan inson soch tolasidan 5 barobar ingichka bo‘lgan noyob bazalt kimyoviy tolasi ishlab chiqarila boshlangan.

— Bazalt tolasi yuqori korroziyaviylik va kimyoviy chidamlilikka ega, temir mahsulotidan 50 foiz arzon, 4 baravar yengil va 3 baravar mustahkam, issiq va sovuqqa chidamliligi 250 daraja sovuqdan +850 daraja issiqqacha bo‘lgan haroratni o‘z ichiga oladi, — deydi “Basalt Uzbekistan” kompaniyasi bosh direktori Azim Abdusattorov. — Shu bois mazkur xomashyodan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar kommunal xo‘jaligi, avtomobilsozlik, to‘qimachilik, neft-gaz va boshqa tarmoqlarda keng qo‘llaniladi.

Bugungi kunda klaster tizimida 6 ta korxona faoliyat yuritadi. Ular Germaniya, Fransiya, Italiya,

Chexiya kabi davlatlardan keltirilgan eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan. Ularda 1,7 mingdan ortiq kishilar ish bilan ta’minlangan.

Mutaxassislar fikriga ko‘ra, hamma toshdan ham bazalt tolasi chiqmaydi, sifatli mahsulot olish uchun xomashyo juda yupqa kimyoviy birikmaga ega bo‘lishi zarur. Forish tumani Osmonsoy konidagi bazalt karyeri ming yil oldin vulqon otilishi natijasida hosil bo‘lgan, yetilgan toshlardan tarkib topgani bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham bunday tola ishlab chiqaruvchi zavodlar sanoqli. Bugungi kunda “Basalt Uzbekistan” dunyo bo‘yicha beshinchi, Markaziy Osiyoda esa yagona korxonadir.

E’tiborlisi, loyihani ishga tushirishdan avval olib borilgan geologiya-qidiruv ishlari natijasida ushbu konda umumiy bazalt toshlari mavjud maydon hajmi 5 mln. kubni tashkil etishi aniqlangan. Bu esa o‘n asrga yetgulik xomashyo zaxirasi mavjudligini tasdiqlaydi.

Klaster tomonidan yiliga 177 ming tonna bazalt toshidan maxsus tola hamda direkt roving, fibra, armatura, kompozit geosetka, quvurlar, mato va issiqlik-izolyatsiya plitalari kabi 42 turdagi mahsulot ishlab chiqarilmoqda. O‘tgan yili 554 mlrd. so‘mlik 45 ming tonna mahsulot tayyorlangan bo‘lib, ularning 80 foizi AQSh, Buyuk Britaniya, Polsha, Italiya, Chexiya, Gruziya, Rossiya, Turkiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston kabi davlatlarga eksport qilingan.

— Yevropa bozorlaridagi muvaffaqiyatimizning ikki muhim sababi bor, — deydi “Basalt Uzbekistan” kompaniyasi tijorat direktori Temur Mamadaminov. — Birinchisi, bu — davlatimiz rahbarining qo‘llab-quvvatlovi ostidagi islohotlar samarasi. Ya’ni O‘zbekiston Yevropa Ittifoqining “GSP+” preferensiyalar dasturiga qabul qilinganidan so‘ng ko‘pgina eksportyor korxonalar qatori biz uchun ham dunyoning rivojlangan davlatlariga keng yo‘l ochildi. Mahsulotlarimiz boj to‘lovisiz eksport qilinmoqda. Keyingi sabab, har yili Fransiyada o‘tkaziladigan an’anaviy “Jec World” — qurilish materiallari va kimyoviy mahsulotlar namoyishiga bag‘ishlangan xalqaro ko‘rgazmada qatnashib, kompaniya faoliyatini targ‘ib etish sa’y-harakatlaridir.

Tadbirkorning ta’kidlashicha, Yevropa bozorlarida bazalt mahsulotlariga qo‘shimcha ta’rif berishga hojat yo‘q. Ular ushbu mahsulotning naqadar mustahkam va ekologik sofligini yaxshi tushunishadi. “Bizdan faqat sifat talab qilishadi, xolos”, deydi u.

Bundan tashqari, xorijiy buyurtmachilar O‘zbekiston bazalti tarkibida yuqori qiymatli elementlar mavjudligini ilg‘ashgan. Shu bois oradagi masofa qanchalik olis bo‘lmasin, AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya kabi davlatlarga har oy mahsulot jo‘natilayotgani qayd etildi.

Press-tur davomida jurnalist va blogerlar klasterga qarashli “Ecobasalt group” va “Geobasalt products” korxonalariga tashrif buyurib, “O‘zsanoatqurilishbank”ning moliyaviy madadi bilan xarid qilingan ilg‘or texnologiyalar ishini kuzatdilar. Mutaxassislardan mahalliy miqyosda bazaltni keng qo‘llash istiqbollari xususida ma’lumot olindi.

— Albatta, mahsulotlarimizdan o‘zimizda ham ko‘proq foydalanilishini istaymiz, — deydi “Basalt Uzbekistan” kompaniyasi bosh direktori. — Bu bilan xavfsizlik, tejamkorlik va atrof-muhit barqarorligini saqlashda yana bir muhim qadam qo‘yiladi. Shuning uchun loyihachi, quruvchi, umuman, bazalt mahsulotlarini ishlatuvchi soha vakillarini o‘qitishga qaratilgan ilmiy markaz tashkil etish niyatidamiz. Zero, bazalt mahsulotlarining afzalligi bilan ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi, uni to‘g‘ri qo‘llash borasida ham yetarli bilim va ko‘nikma zarur.

Shuningdek, kompaniyaning joriy yilgi rejalari qatoridan bozor talabidan kelib chiqib, bazalt direkt roving va matosini ishlab chiqarishni kengaytirish ham o‘rin olgan. “O‘zsanoatqurilishbank” ko‘magida amalga oshiriluvchi loyiha kelgusi yil ishga tushadi. Natijada yiliga 25 ming tonna mahsulot ishlab chiqarilib, uning 90 foizi eksportga yo‘naltiriladi. Bu orqali esa 400 ta ish o‘rni yaratiladi.

Press-tur doirasida OAV xodimlari uchun Jizzax bank xizmatlari ofisida brifing o‘tkazildi. Unda bankning viloyatdagi tarmoqlari tomonidan tumanlardagi tadbirkorlar muammolarini hal qilish va faoliyatini kengaytirish, bankka biriktirilgan mahallalardagi yetakchi tadbirkorlar bilan izchil ishlab, ular orqali aholi daromadini oshirish va bandligini ta’minlashda olib borilayotgan ishlar xususida ma’lumot berildi.

Ahamiyatlisi, moliyalashtirilayotgan loyihalar taqdimot qilindi. Joriy yilda yirik korxonalar hamda kichik va o‘rta biznes subyektlari loyihalariga jami 300 mlrd. so‘mlik kredit ajratilib, buning hisobiga 15 mingdan ziyod ish o‘rinlari yaratilishi ma’lum qilindi.

Brifingdan so‘ng jurnalistlar bank ofisida mijozlar uchun yaratilgan qulayliklar bilan tanishdi.

Bank axborot xizmati.

Xizmatlar litsenziyalangan.

REKLAMA

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E’LON QILADI:

1. Ingliz tili kafedrasi dotsenti, katta o‘qituvchisi, o‘qituvchisi;
2. Roman-german tillari kafedrasi dotsenti (turk tili);
3. Sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi (fors tili);
4. O‘zbek va rus tillari kafedrasi professori (rus tili);
5. Siyosatshunoslik kafedrasi mudiri, dotsenti;
6. Xalqaro munosabatlar kafedrasi dotsenti, o‘qituvchisi.

Hujjatlar (ariza, fotosuratli shaxsiy varaqa, tarjimayi hol, oliy ma’lumot, ilmiy daraja va unvonlar haqidagi diplomlarning nusxalari, ilmiy ishlar ro‘yxati) ushbu e’lon chop etilgan kundan boshlab bir oy muddat ichida Toshkent shahri, Mustaqillik shohko‘chasi, 54-uy (e-email: kadrlar_bulimi@uwed.uz, telefon: 71-267-65-40) manzilida qabul qilinadi.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektorati va mehnat jamoasi institutning Bolalar xirurgiyasi kafedrasi professori Mahmudjon Aliyevga onasi

Mohi ALIYEVAning

vafoti munosabati bilan chuqur ta’ziya izhor etadi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 23-aprel

YER – XAZINA, MULK, VATAN!

Ona yer insonni to‘yg‘azib kelgan, bundan keyin ham asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazishda sug‘oriladigan ekin yerlari, o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lgan maydonlar asosiy manba bo‘lib qoladi. Ana shu oltinga qiyoslanadigan zamin muhitining bugun global iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar, suv tanqisligi va qurg‘oqchilik tufayli o‘zgarib borayotgani achinarlidir.

Mamlakatimiz misolida ko‘radigan bo‘lsak, qishloq xo‘jaligida intensiv foydalaniladigan yerlar, asosan, sug‘oriladigan maydonlar 4,28 million gektarga teng. Bu hududda respublikamiz bo‘yicha yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 95 foizidan oshiqrog‘i yetishtiriladi. Buni, ta’bir joiz bo‘lsa, yurtimizning oltin fondiga qiyoslash mumkin. Negaki, iqtisodiy mustaqilligimizni mustahkamlash, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, eksport salohiyatini yuksaltirish yer resurslaridan samarali foydalanish tuproq unumdorligini oshirish bilan bevosita bog‘liq.

Tabarruk zamin

Yerlarning miqdori, sifati tabiiy va antropogen omillar hamda jarayonlar ta’sirida yildan-yilga kamayishi va aksincha, yaylovlardagi degradatsiya xavfining kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Demak, global oziq-ovqat muammosini yechish uchun cheklangan yer resurslarining samaradorligini oshirish, yer mulkdorlari va ijarachilarining qishloq xo‘jaligi yerlaridan intensiv foydalanishiga investitsiya kiritish, yer unumdorligini saqlash va oshirish imkoniyatlarini yaratadigan tizimni shakllantirish lozim.

Xalqaro hamjamiyatning, jumladan, odamlarning atrof-muhitga e’tiborli bo‘lishi, uni asrab-avaylash, muhofazasiga jalb qilish maqsadida har yili 22-aprelda Xalqaro yer kuni keng nishonlanadi. 2009-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 63-sessiyasida bu masala ko‘rib chiqilib, 2010-yildan boshlab nishonlanib kelinmoqda.

Bundan maqsad — dunyo jamoatchiligi e’tiborini dolzarb ekologik muammolarga qaratish, ularni hal etishda amaliy ishlarga undash, shuningdek, yashayotgan ona zaminimizni, jumladan, mavjud yer maydonlarini asrab-avaylashdir.

Butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligining jahon, mintaqa, milliy, mahalliy va uy xo‘jaligi darajalari mavjud bo‘lib, Yer yuzida global iqlim o‘zgarishining natijasida yuz berayotgan tabiiy ofatlar, suv tanqisligi, qurg‘oqchilik kabi vaziyatlar yerlarning tuproq strukturasi o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Respublika aholisining yildan-yilga o‘sib borayotganligi, ularning oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, ijtimoiy turmush darajasini doimiy ravishda oshirib borishga bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Ayniqsa, bugungi kunda dunyoda bo‘layotgan notinchlik orqasidan aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabi yanada kuchayishi, o‘z navbatida, yer maydonlaridan, jumladan, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish va ularning muhofazasi zaruratini paydo qiladi.

Ayonki, yurtimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab yer masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Qishloq xo‘jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan ko‘plab qonunlar va hukumat qarorlarining qabul qilinishi yer resurslaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va yer munosabatlarini tartibga solishning huquqiy poydevori yaratilishiga asos bo‘ldi.

Ayni chog‘da agrar sohada islohotlarni huquqiy jihatdan ta’minlash maqsadida bir qancha qonunlar qabul qilindi. Jumladan, yer munosabatlarini huquqiy asosda rivojlantirish va tartibga solish, yerlardan maqsadga ko‘ra oqilona hamda samarali foydalanish va ularni muhofaza qilishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, davlat yer kadastri to‘g‘risidagi, fermer xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi, tomorqa xo‘jaligi va yaylov to‘g‘risidagi, tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risidagi qonunlar Oliy Majlis Senati tomonidan ma’qullangan.

Shuningdek, yer to‘g‘risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko‘zlab undan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanishni taqozo etadi. Yerni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, tabiiy muhitni asrash va yaxshilash, xo‘jalik yuritishning barcha shaklini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratish bugungi kun talabidir. Yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishni ta’minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solish, shuningdek, bu sohada qonuniylikni mustahkamlash belgilab berildi.

Yerga bo‘lgan mulkchilik shakllarining o‘zgarishi hisobiga xalqimizning chinakam milliy boyligi, bebaho mulki, rizq-ro‘zimiz manbai bo‘lgan sug‘oriladigan yerlarga bo‘lgan e’tibor kuchaymoqda hamda moddiy manfaatdorlikka erishilmoqda. Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlarning negizi bebaho xazinamiz bo‘lgan yer resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanishga hukumatimiz tomonidan katta e’tibor qaratilayotganida namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda sug‘oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish, ularning meliorativ holatini yaxshilash, yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish va ularning salbiy oqibatlarini yumshatish bo‘yicha izchil ish olib borilyapti. Mamlakat aholisi sonining mustaqillik yillarida 17 million kishidan ziyodga ko‘payishiga qaramasdan aholi jon boshiga ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi bir necha barobarga oshdi.

Yurtimizning yangi davrida issiqlikka va qurg‘oqchilikka chidamli, har bir hududning tuproq-iqlim sharoitiga mos ekinlar, meva va uzumning hosildor navlarini yaratish va hosildorlikni 30 — 35 foizga oshirish “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ustuvor vazifalardan biri deb belgilangan.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning samaradorligi, mamlakatimizning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, nafaqat qishloq mehnatkashlari, balki butun O‘zbekiston aholisining moddiy farovonligini oshirish bebaho boyligimiz bo‘lgan zaminimizning unumdorligi, uning sifatini muntazam yaxshilab borish bilan uzviy bog‘liqdir.

Shu jihatdan, yer islohotlarini jadallashtirish, yer munosabatlarini tartibga solish, yerlar talon-toroj bo‘lishining oldini olish maqsadida tegishli qonunlarni qabul qilish, xususan, yer to‘g‘risidagi qonunchilikka tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib borish muhim vazifalardan sanaladi. Ayni jarayonda Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi yaylovlar degradatsiyasining oldini olish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunlarini qabul qilish yoki amaldagi qonunlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha ish olib bormoqda.

Xalqimizning oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘liq ta’minlashda mavjud yerlardan maqsadli va samarali foydalangan holda zamonaviy texnologiyalar hamda malakali kadrlarni jalb qilish eng dolzarb masalalardan biridir. Bu yo‘nalishda ilmiy-amaliy loyihalar asosida tadqiqotlar olib borish, bebaho boyligimiz va rizq-nasibamiz manbai bo‘lgan ona yerimizni cho‘llanish va sho‘rlanish, qurg‘oqchilik va degradatsiyadan asrash xalqimiz farovonligi, yurtimiz taraqqiyoti uchun naqadar muhim ekanini unutishga haqqimiz yo‘q. Zotan yer — xazina, yer — mulk, yer — VATAN!

Risqul SIDDIQOV,
Oliy Majlis Senatining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari,
Qo‘chqor XOJIYEV,
qo‘mitaning ekspert guruhi a’zosi.

● Yerlarning miqdori va sifati tabiiy va antropogen omillar hamda jarayonlar ta’sirida yildan-yilga kamayishi va aksincha, yaylovlardagi degradatsiya xavfining kuchayib borayotgani kuzatilmoqda.

● Yer yuzida global iqlim o‘zgarishi natijasida yuz berayotgan tabiiy ofatlar, suv tanqisligi, qurg‘oqchilik kabi vaziyatlar tuproq strukturasining o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda.

● Meva va uzumning hosildor navlarini yaratish va hosildorligini 30 — 35 foizga oshirish “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ustuvor vazifalardan biri deb belgilangan.

● Mamlakat aholisi sonining mustaqillik yillarida 17 mln. kishidan ziyodga ko‘payishiga qaramasdan aholi jon boshiga ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi bir necha barobarga oshdi.

Umummilliy harakat

Yashil olam:

HAR BIR KO‘CHATNING EGASI BOR

Mamlakatimizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yashil olamni saqlash va ko‘paytirishga qaratilgan ishlar ko‘lami nihoyatda kengaydi. Bugun hududlarda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘plab mevali va manzarali daraxt nihollari ekilayotgani, yangi bog‘lar tashkil etilayotgani ham ana shu sa’y-harakatlardan darak beradi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi ham bunday xayrli amallarning faol ishtirokchisi, desak, ayni haqiqat. Gap shundaki, Toshkent viloyatining Nurafshon shahridagi “Qumariq” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida 5,5 gektar maydonda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi bog‘i tashkil etilmoqda.

— Bahor mavsumiga xos ishlardan biri yashil hududlarni ko‘paytirish bilan bog‘liq sa’y-harakatlardir, — deydi O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Matbuot xizmati rahbari Muhabbat O‘rmonbekova. — Shu ma’noda, Federatsiya rahbariyati va xodimlari, tarmoq kasaba uyushmalari Respublika kengashlari hamda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining hududiy kengashlari mutasaddilari va faollari yashillikni kengaytirish, shu orqali ona tabiatimizni asrab-avaylashga o‘z hissalarini qo‘shmoqda. Albatta, yangi bog‘larning barpo etilishi nafaqat yurtimiz ko‘rkiga ko‘rk bag‘ishlaydi, balki bugungi kunda oldimizda turgan ekologik muammolarni bartaraf qilishda, havo tozaligida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislar ta’kidlaganidek, bu yil ko‘chat ekishning yangi tartibi joriy etilib, ekologiyaga, atrof-muhitga ko‘proq foyda beradigan, hududning iqlimiga mos ko‘chatlar ekilmoqda. Ular qatoriga 5 ming 700 taga yaqin — terak, sofora, katalpa, klyon, mevali ko‘chatlar, pixta, magnoliya, kiparis kabilarni kiritish mumkin. Shu bilan birga, butasimon o‘simliklar, xonaki gullar ekish, chim qoplamalarini o‘tqazish ham rejalashtirilgan. Bog‘ hududi atrofiga teraklar ekilib, o‘ziga xos salqin iqlim hosil qilinadi.

Qolaversa, yerga qadalgan har bir niholning egasi bor, uning unib ketishi va kelgusidagi parvarishiga mas’ul ham biriktirilyapti. Federatsiya rahbariyati yangi bog‘ni tashkil etishda ana shunday jihatlarga alohida e’tibor qaratgan.

Yana bir muhim tomoni shundaki, o‘tqazilgan daraxt ko‘chatlarini an’anaviy usulda emas, balki suv tejovchi uskunalar yordamida, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini tatbiq etgan holda sug‘orish rejalashtirilgan. Bu suv tanqisligi muammosi ko‘ndalang turgan bir paytda eng samarali va maqbul yo‘ldir.

Bu hali hammasi emas. Ekilgan daraxt ko‘chatlari oralari ham bekor qolmaydi, aksincha, suvni kam iste’mol qiladigan qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilib, aholi dasturxoniga tortiq qilinishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi faollari yashillikni yaratish bilan bog‘liq bu boradagi ishlarni tizimli davom ettirishni maqsad qilgan. Albatta, ezgu niyat bilan o‘tqazilgan har bir nihol kelajakda o‘z mevasini berishi, shubhasiz.

Rahim SHERQULOV
(“Xalq so‘zi”).

BOQIY QADRIYATLAR

MEHR BOG‘INING MUATTAR CHECHAKLARI

— Do‘stim, meni tabrikla, farzandlik bo‘ldim!

— Umri bilan bergan bo‘lsin! Xo‘sh, endi bayram qilib, bi-ir “eriysan-da” to‘g‘rimi?

— Yo‘q, do‘stim, bu dabdabaning nima keragi bor. Otam bir maslahat berdi, shuni amalga oshirmoqchiman, sening ham yordaming asqatadi.

— O‘zi nima qilmoqchisan?

— Hozir bozorga borib, 10 tup mevali daraxt ko‘chati sotib olamiz. Keyin uni yangi tug‘ilgan chaqaloq sharafiga ekamiz. O‘g‘lim ulg‘ayib, yura boshlaganida daraxtlar hosilga kiradi. Ham meva, ham toza havo. Axir ona tabiatimiz yashillikka muhtoj bo‘lib turgan paytda bo‘lar-bo‘lmas dabdabayu as’asaga balo bormi? Fikrim senga ma’qulmi?

— Jo‘ra, to‘g‘ri o‘ylabsan, ketdik bozorga...

Bu kabi ibratli tashabbuslar keng qanot yoza boshlagani quvonarli, albatta. Azaldan xalqimiz farzand tug‘ilganda unga atab terak ekkani, o‘g‘liga uy qurganida shu terakdan foydalangani haqida keksalarimiz gapirib yurishadi. Bugun esa ana shu o‘lmas qadriyatlar yana urfga aylanmoqda, yoshi oltmishga yetgan kishilar 60 tup ko‘chat ekib, bog‘ni parvarishlashni o‘z zimmasiga olayotgani ham an’ana tusiga kirdi. Yurtga mehri, muhabbati yuksak odam, albatta, ona zaminga o‘z qo‘llari bilan nihol ekadi-da. Aslida, Vatanni sevish uni bog‘-rog‘larga aylantirishdan boshlanmaydimi?

Tan olish kerak, to‘qlikka sho‘xliklar ham uchraydi. To‘ylardagi, turli marosim va izdihomlardagi ortiqcha taomlaru dabdaba oddiy oila budjetini cho‘ktirib qo‘yishi hech gap emas. Holbuki, bu marosimlarning o‘zi ortiqcha tashvish. Uning o‘rniga to‘ybolaga atab mevali daraxt ko‘chati o‘tqazilsa yoki kelin-kuyov o‘z qo‘li bilan to‘rt tup daraxt o‘stirsa, qalban tabiatga yaqinlashamiz-ku! O‘zimiz ekkan daraxt kurtak chiqarsa yoki barg yozsa, ruhiyatimiz osmoni charaqlab ketadi. Masalan, ayollarimiz “gap”ga yig‘ilganida “Kelinglar, har birimiz bittadan daraxt ko‘chati o‘tqazib, o‘zimizning nomimiz bilan ataymiz” deyishsa va bu ishni amalga oshirsa, qanday yaxshi. Yoki erkak “gashtak”chilar o‘zlarining “ulfatlar bog‘i”ni yaratishsa, har gal yig‘ilishganida shu bog‘dagi daraxtlar ostini yumshatishsa, parvarishlashsa, nur ustiga nur emasmi?

Keksa avlod vakillari farzandlar va nabiralarni ko‘chat ekishga undab turishi kerak. Kattalar o‘gitini o‘g‘il-qizlar qabul qilishadi, quloq tutishadi. Ayni “Yashil makon” umummilliy loyihasi amalga oshirilayotgan kezlarda otaxonu onaxonlar so‘ziga muhtojlik sezilib turibdi. Shunday onaxonlardan biri Nishon tumanida yashovchi keksa muallima Gulchehra ayaning fikrlari barcha uchun ibratli. Onaxon bugun yurtimizda bog‘-rog‘lar ko‘payayotgani, ko‘chat ekish vijdon ishiga aylanganidan suyunib, o‘z hovlisidagi bog‘ tarixi haqida so‘zlab berdi.

Onaxonning aytishiga ko‘ra, boshlang‘ich sinfda o‘qitgan shogirdi Yaponiyadan qo‘ng‘iroq qilib, ustozini Hayit bayrami bilan tabriklabdi va bog‘dagi bir daraxt haqida so‘rabdi.

— Ustoz, bog‘ingizdagi men ekkan o‘rik daraxti oppoq gulga burkangan bo‘lsa kerak?

— Boburjon, nimasini aytasan, bu yil daraxting shunday qiyg‘os gulga kirdiki, novdalarini ko‘zimga surtib, seni eslab turgandim, o‘zing qo‘ng‘iroq qilib qolding, bolam. Tani-joning sog‘mi, o‘qishlaring yaxshimi? Daraxting meva beryapti, albatta, sen ham yaxshi mutaxassis bo‘lib, yangi O‘zbekiston istiqboli yo‘lida xizmat qilasan.

U tomondan ovoz eshitilmadi. Boburni ona yurt sog‘inchi, bolalik xotiralari bir zum o‘ylantirib qo‘ygan, ko‘ngli allanechuk bo‘lib ketgan edi. Onaxonning ham kipriklari namlandi. Gulchehra muallima ko‘z o‘ngida jajji Bobur va uning sinfdoshlari gavdalandi. O‘shanda o‘quvchilar ustozi tug‘ilgan kuniga daraxt ko‘chati sovg‘a qilishgandi. Muallimaning hamkasblaridan biri: “Bir quchoq cho‘pni sovg‘a o‘rnida qabul qildingizmi?” deb kesatgan edi. O‘sha bir quchoq “cho‘p” bugun mevazor boqqa aylanganini u ko‘rganda edi!

Bobur o‘rik, Nargiza olma, Zilola shaftoli, Murodjon gilos, Sevinch olxo‘ri, Davron xurmo, Ulug‘bek nok, xullas, 22 o‘quvchi sovg‘aga 22 ta ko‘chat olib kelgan. Shogirdlar yaratgan bu bog‘ ustoz va shogirdlar o‘rtasidagi suhbatda doim esga olinadi. Har gal o‘quvchilari qo‘ng‘iroq qilganda Gulchehra muallima daraxtlar ko‘kka bo‘y cho‘zayotgani haqida gap ochadi. Shogirdlar o‘z qo‘llari bilan ekkan daraxt o‘sayotgani, rivojlanayotgani, gullab meva tugayotganidan quvonishadi.

Toshkent shahrining Olmazor tumanidagi Yangi Sebzor mahallasida yashovchi, yoshi yetmishdan oshgan Dilorom ayaning ko‘p qavatli uylar o‘rtasida bog‘ yaratgani ham ibratga loyiq. Tinib-tinchimas onaxon bilan yaqinda suhbatlashganimizda u bolalarda ona tabiatga muhabbat uyg‘otayotgani haqida so‘zlab berdi.

— Ko‘p qavatli uylar o‘rtasida bog‘ yaratish oson bo‘lmagan, — deydi onaxon. — Bundan uch yil oldin dastlabki ko‘chatlarni ekayotganimda ba’zi kishilar “Bu yerda daraxt o‘smaydi, suv yo‘q, yozda qurib ketadi” deb aytishgandi. Men esa fikrimdan qaytmadim, “baklajka”da suv tashib, daraxtlarni undirib oldim. Endilikda 30 tup daraxtga taxtacha osib, unga “Zarnigor”, “Shukrona”, “Zebuzar”, “Ibrohim” kabi bolalar ismlarini yozib chiqdim. Bu bolalar har kuni “baklajka”da suv olib kelib nomi yozilgan daraxtlar ostiga quyadi. Bundan ota-onalar ham juda xursand. Ayniqsa, 6-7 yoshli bu bolajonlarning “Mening daraxtim gullabdi”, “Mening daraxtim barg chiqaribdi” degan gaplarini eshitganimda nihoyatda yayrab ketaman.

Dilorom aya bu bo‘stonni “Mehr bog‘i” deb atabdi. Keksalar shu bog‘ yonidagi o‘rindiqda nafas rostlab, choyxo‘rlik qilishadi. Jasur boboning “leyka”da daraxtlarga suv quyib yurgani esa bolajonlar uchun namuna. Aytmoqchi, ko‘p qavatli uylarda chaqaloq dunyoga kelsa, ota-ona shu boqqa bir tup nihol ekadi. O‘sha chaqaloq yura boshlaganida shu daraxt ostiga uning qo‘llari bilan suv quyishadi. Bunday go‘zal an’analar hayotimizning a’moliga aylanib borayotgani quvonarli, albatta. Ammo qaniydi, barcha mahallalarda, ko‘p qavatli uylar yonida Dilorom aya yaratgan bog‘ kabi mevazor maskanlar yaratilsa?! Buning uchun imkoniyat bor, faqat uni qo‘ldan boy bermaslik kerak.

Ko‘chat ekib, bog‘ yaratish eng savob ish. Zotan, elu yurtimiz gulu gulzorlarga burkanib, tabiatimiz so‘lim va go‘zal qiyofaga kirsa, bu bizning, farzandlarimizning, qolaversa, kelajak avlodning baxtu saodatidir. Ulug‘ shoir Erkin Vohidovning “Sendan farzandingga bog‘ qolsin, ey do‘st, Bog‘ing Vatan degan nom olsin, ey do‘st” degan satrlari bugungi kun uchun, “Yashil makon” ijodkorlari uchun yozilgandek jaranglab turibdi. Haqiqatda, biz bugun ekkan nihollar ertaga go‘zal va serfayz boqqa aylanib, farzandlarimizga, kelajak avlodga xizmat qiladi. Shuning o‘zi yurtga daxldorlik, Vatanga muhabbat degani emasmi?

Faxriddin BOZOROV
(“Xalq so‘zi”).

Abdumutallib TOYIROV olgan suratlar.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-442. 14 540 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 20.50 Topshirildi — 00.05 1 2 3 4 5 6